



МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХЭМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

FAROBİY PEDAGOGIK TA'LIMOTINI O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILARDA INSONPARVARLIK, VATANPARVARLIK G'OYALARINI SHAKLLANTIRISH

Tajibayeva M.T.

NamDU tayanch doktranti

Tayanch so'zlar: pedagogik ta'limot, insonparvarlik, vatanparvarlik, komillik.

Ключевые слова: педагогическое обучение, гуманизм, патриотизм, совершенство.

Key words: pedagogical teaching, humanitarianism, patriotism, perfection.

Mamlakatimiz rahbari 2022-2026 yillarda milliy rivojlanish yo'lida orttirilgan tajribalarga asoslanib "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi dasturi" da muhim vazifalarni ta'kidlab o'tdilar. Mazkur taraqqiyot strategiyasida sifatli ta'lim-tarbiya masalasiga va milliy qadriyatlarga nisbatan yoshlarni hurmat- e'tiborini oshirish kerakligi ta'kidlanadi. Azal-azaldan ma'lum o'zbek xalqi tarixiga, madaniy merosiga hurmat-bu uning yaratuvchilariga, rivojlantiruvchilariga va davomchilariga izzat-ikrom, mehr-oqibatli hisoblanib kelgan. O'tmishdoshlarimizga biz qanday munosabatda bo'lsak, farzandlarimizdan bizga shunday javob qaytishligini talabalarimizga tushuntirish masalaning muhim jihatlaridan biri sifatida qaraymiz. O'tmishimizni qanchalik yaxshi bilsak va e'zozlasak, hozirgi davrni, mustaqillikning istiqbolini shunchalik chuqur anglaymiz. Asosiysi, mustaqillik tufayli xalqimizning madaniy-ma'naviy taraqqiyotiga keng yo'l ochildi. Hozirda milliy meros mohiyatini anglashgina emas, shu bilan birga uni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratildi. Odob-axloq, ta'lim-tarbiya sohasidagi qadriyatlarimiz bizlar uchun bebaho milliy meros, ma'naviy boylkdir. Ana shu milliy qadriyatlarni tiklash, ulardan foydalanish, yosh avlodga yetkazish mustaqillikni mustahkamlashda, unga qarshilik qiladigan har qanday kuchga zarba berishda, farzandlarimizda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda dasturi amal bo'ladi, degan fikrdamiz. Darhaqiqat, so'nggi yillarda ulug' olimlarning ilmiy merosi, asarlarini o'rganish, xalqimizga yetkazish masalalari muhim bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy pedagogik fikrlar taraqqiyotini insonparvarlik, vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirishga oid bilimlarsiz tasavvur qilish qiyin. Insonparvarlik

– inson deb nomlangan qadriyatni shaxs sifatida tan olish, uning qadr-qimmatini va or-nomusini qadrlashga asoslangan g‘oya va qarashlarni, insonparvar shaxsga xos xususiyat, xatti-harakat, mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik, jo‘mardlik, saxovat, yuksak insonparvarlik, shirinsuxanlik kabi go‘zal axloqiy fazilatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida insonparvarlik qimmatli yo‘nalishlar va qarashlarning muayyan tizimi sifatida ijtimoiy ideal ahamiyatiga molik bo‘lmoqda. Inson – ijtimoiy taraqqiyotning cho‘qqisi, pirovard maqsadi sifatida qaralmoqdaki, bunda insonning shaxs sifatida barcha imkoniyatlarini ishga solishi, hayotning ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy sohasida muvozanatda bo‘lishi, alohida betakror shaxs sifatida gullab-yashnashi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilishi lozim bo‘ladi. Insonparvarlik g‘oyasi Konstitutsiyadagi asosiy g‘oya bo‘lganligi sababli, uni Konstitutsiya prinsipi deyish mumkin. “Insonparvar” tushunchasi insonparvarlikka nisbatan birlamchi tushuncha bo‘lib, u qimmatli insoniy fazilat sifatida doimo boshqalarga yordam berishga tayyor bo‘lish, boshqalarga nisbatan hurmat, mehribonchilik ko‘rsatishga intilishni anglatadi. Pedagogik faoliyatning insonparvarlik tabiati eng avvalo insonni tarbiyalashda, uni shaxs sifatida shakllantirish va rivojlantirishda, u tomonidan insoniyat erishgan yutuqlarni o‘zlashtirish darajasida va shu orqali insoniyat naslining davomiyligi va vorisiyligini ta‘minlashda namoyon bo‘ladi. Vatanparvarlik - kishining o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kamol topgan joy, zamin, o‘lkaga bo‘lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma‘naviy-axloqiy xislatlari, fazilatlaridir. Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mavjud ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Shaxs vatanparvarlik tuyg‘usini yaratmaydi, balki uni tayyor holda qabul qilib, asta-sekin o‘z ongiga singdiradi. Chunki vatanparvarlik uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadigan ijtimoiy tuyg‘udir. Vatanparvarlik kishilarning ijtimoiy va ma‘naviy-axloqiy xislatlarining, fazilatlarining yuksak darajada namoyon bo‘lishidir. Zero, ular negizida otabobolardan meros qolgan zaminni sevish, urf-odatlarini, qadriyatlarni saqlash, el-yurt ravnaqi uchun chin dildan mehnat qilib, Vatanni dushmanlardan himoya qilish, har qanday qaramlikdan ozod etish, hatto, zarur bo‘lsa, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamalik kabilar yotadi. Vatanparvarlik el-yurt manfaatlariga xizmat qilish, el-yurt manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yish demakdir. Ulug‘ ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan ona-Vatanga muhabbat tuyg‘usi farzandlarimiz, bugungi va kelajak avlodlarimiz uchun chinakam e‘tiqod va muhabbatning in‘ikosidir.

Pedagogikaning rivojlanishi uchun tarixga nazar tashlab, fanning rivojlanish va taraqqiy etish bosqichlari, pedagogik ta‘limotlar, g‘oyalar, qarashlar mazmunini o‘rganish nihoyatda muhimdir. O‘z navbatida madaniyatshunoslik – o‘quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma‘naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda zamonaviy madaniyat yutuqlaridan foydalangan



holda, madaniy xulq-atvori xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi. “Har tomonlama barkamol inson” tushunchasi pedagogik faoliyatning asosiy maqsadi sifatida quyidagilarni o‘zida mujassamlashtiradi: aqliy rivojlanish, jismoniy tarbiya, ma’naviy va axloqiy shakllanganlik, ishonch va e’tiqodning to‘g‘ri shakllanganligi, qobiliyatlarining rivojlanganligi, fan va texnikaning zamonaviy yutuqlaridan xabardor bo‘lish, insonparvarlik, Vatanga muhabbat va sadoqat, vatanparvarlik, jamoatchilik. Bugungi zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning mislsiz shiddati ta’sirida odamzod asl ma’naviy-axloqiy qadriyatlardan, ba’zan ayrim insoniy sifatlardan uzoqlashib qolish ehtimolidan xavotirga tushmoqda. Bu muammolarni hal qilish uchun, dunyo xalqlari falsafasi tarixi, tasavvuf allomalarining ta’limotlari, jumladan, Farobiy merosini yangicha yondashuvlar asosida o‘rganish zarur.

Bugungi kunda davlatimiz rahbarining ajdodlar merosini o‘rganishga qaratayotgan alohida e’tiborlari, tasavvufning ilg‘or va bunyodkor g‘oyalarini o‘rganish, ularni hayotga tadbiiq etish katta mas’uliyat yuklaydi. Xususan, Abu Nasr Farobiy pedagogik ta’limotini o‘rganish orqali o‘quvchilarda insonparvarlik, vatanparvarlik g‘oyalarini shakllantirishga oid qarashlarini chuqur o‘rganish bugungi kunda zamonaviy muammolar yechimida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

O‘rta asr Sharqining mashxur mutafakkiri, faylasuf olimi Abu Nasr Farobiy pedagogik ta’limotini o‘rganish orqali o‘quvchilarda insonparvarlik, vatanparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan. Uning insonparvarlik g‘oyalari zaminida ta’lim-tarbiya, inson shaxsiyatini kamol toptirishning yo‘l-yo‘riqlari, ilm -ma’rifatga erishuvning usullari, ijtimoiy muammolarni yechish masalalari turadi. Bu muammolarni Farobiy inson, insoniylik, yetuk insoniy jismlarni yaratish nuqtai nazaridan hal etishga intiladi. Farobiyning uqtirishicha, insonni baxt-saodatga eltuvchi jamoa yetuk jamoa bo‘la olishi mumkin. Komil insonni yaratish, uni baxt-saodatga eltish har qanday davlat, jamoa boshlig‘ining vazifasi bo‘lishi darkor. Farobiy inson rivojida ilm-fanni hal etuvchi omil, deb biladi, tashqi olamni o‘rganish, tabiat sirlarini bilishda tabiiy bilimlarning mavqeini alohida qayd qiladi. Farobiyning ta’kidlashicha, insonni tarbiyalash ikki xil usul yordamida olib borilishi mumkin.

Agar tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda zaruriy, aqliy va axloqiy xislatlarni - bilimli bo‘lishga to‘g‘rilikni, haqiqatni sevishga, jasur do‘stlarga sadoqatli bo‘lish kabi fazilatlarni egallashga intilmasa, tarbiyachi, muallim unday fazilatlarni shakllantirmog‘i lozim. Bunday insoniy fazilatlarga ega bo‘lish uchun baxt-saodatga eltuvchi jamoa bo‘lishi kerak. Demak, Farobiy o‘z pedagogik nazariyalarini, psixologik, fiziologik muammolarni falsafaning muhim qismi sifatida talqin etadi hamda insonni har tomonlama yaxlit va o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan qismlardan iborat ekanligini aytib, uni bir butun holda o‘rganishni tavsiya etadi. Uning ta’limoticha, insonni baxt-saodatli jamoaning a’zosi qilib yetishtirish uchun, izchillik bilan ish olib borish lozim.

Farobiy o'zining «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Fanlarning klassifikatsiyasi», «Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerak», «Falsafaning mazmuni haqida so'z» singari va boshqa ko'plab risolalarida insonning ma'naviy rivojlanishida bilimning ahamiyatiga qayta-qayta to'xtaldi. Farobiy insonning shakllanishida ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor beradi. Ta'lim berish — o'quvchiga o'qish, o'rganish asosida fan, nazariy bilim berishdir. Tarbiya berish esa yoshlarga ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir. Farobiy o'zining «Baxt-saodatga erishuv haqida»gi asarida ta'lim berish oddiydan, murakkabga qarab borishga asoslanishi lozimligini ko'rsatadi. Ta'lim-tarbiya berish bo'yicha o'z vazifasini bajarmaydigan o'qituvchi va davlat boshlig'i hurmatga sazovor emas va u o'z lavozimiga to'g'ri kelmaydi, deb ko'rsatadi Farobiy. O'zining «Falsafadan oldin nimani o'rganish kerak» degan asarida Farobiy shunday deydi: «Baxt-saodatga erishuvning zaruriy sharti - ilm-fanni, nazariy bilimlarni egallashdir. Nazariy bilimni egallashga kirishuvdan oldin,- deb ko'rsatadi. Farobiy,-odam o'zini tayyorlashi zarur, o'z xulqini turli tabiiy xirslardan tozalashi kerak, unda turli lazzatlarga, kayf-safoga emas, haqiqatga bo'lgan xirs qolishi kerak. Shu bilan birga, nutq quvvatining kuchini oshira borishi darkorki, bu uning eng istagan xohishi bo'lib qolsin». Ilm-fan bilan shug'ullanish kishidan yuksak mahorat talab qiladi. Farobiy, haqiqiy olim bo'lish insondan har tomonlama yetuk bo'lishni, ya'ni aqlli, bilimdon bo'lishni, axloqiy poklikni talab etadi, deb ko'rsatdi. «Ilmni o'rganishga kirishmoqchi bo'lgan odam,- deydi u,- yosh, kamtar bo'lishi, yaxshi salomatlikka ega bo'lishi, odobli va tarbiya ko'rgan, qat'iy, ayyorlik va aldashdan uzoq turli salbiy qiliqlardan o'zini saqlay oladigan, ilm ahllariga hurmat bilan qaraydigan bo'lishi zarur». Farobiy ta'kidlab ko'rsatadiki, «Bilim yaxshi xulq-odob bilan bezatilgan bo'lishi kerak». Farobiy o'zining «Fozil shahar aholisining fikrlari», «Baxt-saodatga erishuv haqida» va boshqa asarlarida axloq falsafasi, jumladan, axloqiy tarbiyaning muhim muammolarini hal qilishga harakat qiladi. Mutafakkirning axloq va uning asosida yosh avlodga tarbiya berish g'oyalari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, aksincha, axloqiy tarbiyaning yangi usul va qoidalarini ishlab chiqish va ularni takomillashtirishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Farobiy axloq tushunchasini keng ma'noda talqin qilar ekan, butun insonlarni, ularning dini, e'tiqodi, irqi, tilidan qat'iy nazar, hamjihatlik va hamkorlikka chaqiradi. Dunyoda bir butun yagona inson jamoasini shakllantirishni va barcha fuqarolarning manfaatlarini birdek ko'zlab faoliyat ko'rsata olishini orzu qiladi. O'z davrida ajoyib orzu-istaklar va g'oyalarni ilgari surgan Farobiyning dunyoda yagona jamiyat barpo qilish to'g'risidagi fikrlari ham keyinchalik dunyoning juda ko'p mutafakkirlari, jumladan, nemis faylasufi I.Kant tomonidan ham ilgari surilgan edi. Farobiy ilgari surgan, shuningdek, dunyo olimlari tomonidan ham maqsadga muvofiq deb topilgan «dunyoda yagona fuqarolik jamiyati»ni tarkib toptirish haqidagi g'oyalari ustida jiddiyroq bosh



qotirsak, bu g'oyaning bugungi kunda naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligi ravshan bo'ladi. Farobiyning fikricha, yuksak axloqiy fazilatlarga rioya qilgan holda rivojlanayotgan har qanday davlat o'z fuqarolarini shak-shubhasiz, baxt-saodat yo'lga olib chiquvchi kuchli quroldir. Inson bilim va namunali axloq egasi bo'lgandagina yaxshi odat va harakatlarni o'zida mujassamlashtira oladi, u har qanday yovuz buzg'unchiliklar ko'chasiga kirmaydi, aksincha, ularga nisbatan shafqatsiz jang olib boradi.

Bugungi kunda ta'lim tizimini shunday yo'lga qo'yish kerakki, u umummilliy va insonparvar tayyorgarlikni kuchaytirish orqali o'z-o'zini ishga solish imkonini bersin. Ta'limning insonparvar yo'nalganligi ta'lim jarayonini tegishli shakllari orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunda ta'lim jarayonini yuqori darajada individuallashtirish va differentsiatsiyalash, o'quvchilarda faollik va tashabbuskorlikni shakllantirishga urg'u berish, o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi munosabatlarni o'zaro hamkorlik asosida qurishga alohida e'tibor beriladi. Milliy mustaqillik tarbiyasining maqsadi mehnat va ijtimoiy faoliyatga, Vatan himoyasiga tayyor bo'lgan, barkamol shaxsni tarkib toptirishdan iborat. Zero, «Yurtiga Vataniga muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari, xalqimizning qon - qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob insoniy fazilatlarni asrab - avaylab va yanada takomillastirish, farzandlarimizni ozod va demokratik O'zbekistonning munosib o'g'il - qizlari etib tarbiyalash masalasi ma'naviyat sohasidagi ishlarimizning asosiy yo'nalishini, tashkil etmog'i kerak». Shu sababdan bizning fikrlarimiz, orzularimiz, dunyoqarashimiz, niyatlarimiz qancha sof, rostgo'y, insonparvar bo'lsa, hayot ham bizga shunchalik sof, rostgo'y. insonparvar tuyuladi. Garchi dunyoni o'zgartirmoqchi bo'lsang -o' zingdan boshla.

Hayotni biz faqat o'zimiz tuslaymiz va unga rang beramiz.

Hayot juda o'zgaruvchan, va uning ertangi kunda yorqin va sof bo'lishini xohlasak, bu bizning qo'limizda Vatanparvarlik hissini uyg'otish, mustahkamlash va uning talqinini kengaytirish - mustaqil O'zbekiston fuqarolarining muhim vazifasi ekanligi shubhasizdir. Vatanparvarlik - Vatanni sevmoqlikni anglatrsa, bu ilmni egallagan kishi Vatanga jonini atagan komil inson martabasiga yetgan bo'ladi. Biz, har birimiz, Vatanni sevamiz, chunki Vatan - biz nafas olayotgan havodir.

Forobiyning ta'lim-tarbiyada, yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda, xususan, aqliy-axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor berganligi ko'rinib turibdi. Uning ta'kidlashicha, bilim bilangina maqsadga erishilmaydi va bola ham yetuk bo'lmaydi. Olim daraxtning yetukligi uning mevasi bilan bo'lganidek, insonning barcha xislatlari ham axloq bilan yakunlanishini aytadi.

Umuman, Farobiy o'z davridagi yoshlarning ta'lim olishlari, bilim egallashlari, hunar egallashlari, faoliyat ko'rsatishlari, mehnat qilishlari zarurligi xususida fikrlar bildirgan. Bu fikrlar hozirda ham ta'lim-tarbiyaga g'oyat muhimdir.

Abu Nasr Farobiyning ilmiy merosi bugungi kunda ham beqiyos ahamiyatga ega bo‘lib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizni chin insoniy fazilatlar sohibi etib tarbiyalash, ular qalbida ajdodlarga munosib avlodlar bo‘lish hamda Vatanga muhabbat tuyg‘ularini mustahkamlashda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi, shubhasiz. Ajdodlarimiz qoldirgan ma‘naviy-madaniy merosda shunday fikrlar borki, ular bugungi kunda ham taraqqiyotimizning o‘ziga xos yo‘lini belgilashda o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Xalqimiz madaniyatini, milliy istiqlol mafkurasini rivojlantirishda madaniy merosimiz, undagi ilm - fan, ijtimoiy-siyosiy, ta‘lim-tarbiyaga oid fikrlarni o‘zlashtirish va amalga tatbiq qilish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Zero, «o‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi».

Adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026- yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi” 2021-yil 30- dekabr.
2. U. Tojixonov va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. – T.: Sharq, 2001.
3. BAHODIR MA‘MUROV. UMUMIY PEDAGOGIKA. Barcha ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun DARSLIK Toshkent 2020
4. Dildora Yusupova, Baxtiyor Zokirov, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsentlari Insoniylikning eng muhim fazilati – Vatanga bo‘lgan muhabbatdir 2022- yil.
5. Qodir Ofarinov Abu Nasr Farobiy - Sharqning ikkinchi muallimi “Ma‘rifat” gazetasi 2007.
6. Husanov Nishonboy Abdusattorovich, Xo‘jaqulova Ra‘no Sharipovna, Dilmurodova Nilufar Asatullayevna O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsifiya etilgan (Iqtisodiyot oliy o‘quv yurtlarining bakalavr bosqichi umumiy guruh talabalari uchun) TOSHKENT “Excellent Polygraphy” 2020.
7. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi, 1993.
8. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida.- Toshkent, Yozuvchi, 2001.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada o‘rta asr sharqining mashhur mutafakkiri, faylasuf olimi Abu Nasr Farobiy pedagogik ta‘limotini o‘rganish orqali o‘quvchilarda insonparvarlik, vatanparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilganligi hamda bugungi kunda davlatimiz rahbarining ajdodlar merosini o‘rganishga qaratayotgan alohida e‘tiborlari, tasavvufning ilg‘or va bunyodkor g‘oyalarini o‘rganish, ularni hayotga tatbiq etish masalalari haqida ma‘lumotlar berilgan. Farobiyning pedagogik g‘oyalari o‘rta asr ijtimoiy taraqqiyotida juda muhim ahamiyat kasb etadiki, bu ta‘limot insoniyatning maqsad muddaosi hisoblangan ma‘naviy - axloqiy va ma‘rifiy komillikka erishish yo‘lini yoritib turuvchi o‘chmas mash‘aldir.

РЕЗЮМЕ

В данной статье, изучая педагогическое учение известного мыслителя Средневековья, философа-ученого Абу Насра Фараби, студентам прививаются идеи гуманизма и патриотизма, а сегодня глава нашей страны акцентирует внимание на изучении наследия предков. Внимание, информация о вопросах изучения передовых и творческих идей суфизма, их реализации. Педагогические идеи Фараби имеют большое значение в общественном развитии Средневековья, и это учение представляет собой неугасимый факел, освещающий путь к духовному, нравственному и образовательному совершенству, которое является целью человечества.

SUMMARY

In this article, by studying the pedagogical teachings of the famous thinker of the Middle Ages, the philosopher-scientist Abu Nasr Farabi, students are instilled with the ideas of humanity and patriotism, and today the head of our country focuses on studying the heritage of his ancestors. attention, information about the issues of studying the advanced and creative ideas of Sufism, their implementation. Pedagogical ideas of Farabi are very important in the social development of the Middle Ages, and this teaching is an unquenchable torch that illuminates the path to spiritual, moral and educational perfection, which is the goal of mankind.